

## The Problem Of Quasi-Dialogue And Inner Speech In Children's Speech

**Yuldasheva Dilafruz Makhamadaliyevna**

Professor of the Department of World Languages, KU,

Doctor of Philology (DSc)

E-mail: [dilafruzyuldasheva12@gmail.com](mailto:dilafruzyuldasheva12@gmail.com)

**Vakhobova Barnoxon Muzaffar qizi,**

Master's student, KU

E-mail: [vakhobovabarnoxon1@gmail.com](mailto:vakhobovabarnoxon1@gmail.com)

### ANNOTATION

This article studies the emergence, development of quasi-dialogue and inner speech in children's speech, as well as their relationship with speech innovations, based on ontolinguistic, pragmalinguistic and psycholinguistic approaches. The object of the study was the speech activity of 1-5-year-old children speaking Uzbek and English. Observation and questionnaire methods were used. In particular, the phenomenon of word formation using the morpheme “ni” identified in the speech of a 3-year-old child named Huzaiifa - as a vivid example of speech innovation - is analyzed. The article also discusses the main studies on quasi-speech in world and Uzbek linguistics.

**Keywords:** Quasi-speech, inner speech, ontolinguistics, speech innovation, egocentric speech, child speech, word formation, speech creativity.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bola nutqida kvazi muloqot va ichki nutqning paydo bo'lishi, rivojlanishi hamda nutqiy innovatsiyalar bilan o'zaro bog'liqligi ontolingvistik, pragmalingvistik va psixolingvistik yondashuv asosida tadqiq etiladi. Tadqiqot ob'ekti sifatida o'zbek va ingliz tillarida so'zlashuvchi 1-5 yoshli bolalarning nutqiy faoliyati tanlangan. Kuzatuv va so'rovnom metodlari qo'llangan. Xususan, 3 yoshli Xuzayfa ismli bolaning nutqida aniqlangan “ni” morfemasi orqali so'z yasash hodisasi - nutqiy innovatsiyaning yorqin namunasi sifatida - tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek kvazi nutq bo'yicha jahon va o'zbek tilshunosligidagi asosiy tadqiqotlarga ham to'xtaliladi.

**Kalit so'zlar:** Kvazi muloqot, ichki nutq, ontolingvistika, nutqiy innovatsiya, egotsentrik nutq, bola nutqi, so'z yasash, nutqiy kreativlik

### I. KIRISH

Bola tug'ilganidan boshlab til o'zlashtirishi va nutqiy rivojlanishi bugungi kunda dunyo tilshunosligining eng faol o'rganilayotgan yo'nalishlaridan biridir. Ontolingvistika - bolaning nutqiy qobiliyatini uning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishi nuqtayi nazaridan o'rganuvchi fan sifatida XX asr o'rtalaridan boshlab mustaqil fan sohasi sifatida tan olindi. A.N.Gvozdev, A.R.Luriya<sup>1</sup> kabi olimlarning asarlarida

bolalar nutqining lingvistik tahlili chuqur amalga oshirilgan.

Jahon tilshunosligida bolalar nutqining pragmatik xususiyatlari atroflicha o'rganilgan. Jumladan, S.N.Seytlin, J.Piaje, V.V.Bogdanov, Y.V.Beloglazova, N.I.Lepskaya, O.L.Strogonova, M.B.Yeliseyeva, E.Y.Moiseyenkolar<sup>2</sup> bolalar nutqi tilshunosligini yangi nazariy g'oyalar bilan boyitishdi. O'zbek tilshunosligida ham bolalar nutqini lingvistik nuqtayi nazardan o'rganishga dastlabki

<sup>1</sup> Лурия А.Р. Язык и сознание / Под ред. Е.Д. Хомской. - М.: Изд-во МГУ, 1979. - 320 с.

<sup>2</sup> Цейтлин С.Н. Детская речь: инновации формообразования и словообразования (на материале современного

русского языка): автореф. дис... докт. филол. наук. – СПб., 1989. – 72 с.; Цейтлин С.Н. Язык и ребенок: Лингвистика детской речи: Учеб. пособ. для студ. вузов. – М.: Гуманит. изд. центр «Владос», 2000. – 240 с.;

qadamlar qo'yilgan. Jumladan, N.Sayidrahimova o'zbek bolalar nutqining umumiy lingvistik xususiyatlarini, M.Qurbonova<sup>3</sup> o'zbek bolalar nutqining leksik sathini sotsiopsixolingvistik jihatdan, N.Ahmedova bolalar nutqining obrazli tafakkur bilan aloqadorligini, N.Yarashova esa bolalar adabiyoti tilini lingvokognitiv, lingvopsixologik, G.Iskandarova lingvokulturologik hamda genderologik jihatdan tadqiq etishgan<sup>4</sup>.

Kvazialogik nutq jahon tilshunosligida qisman o'rganilgan. Jumladan, T.I. Petrova tomonidan sahnalashtirilgan kvazialog bolalar nutqining alohida janri sifatida psixolingvistik jihatdan, kattalar nutqida kvazialog masalasi esa S.P.Potseluyev<sup>5</sup> tomonidan siyosiy nutq misolida monografik aspektda tadqiq etilgan.

Kvazi muloqot va ichki nutq tushunchalari tilshunoslikda alohida e'tibor talab etadi. Kvazi nutq - lotincha "quasi" (o'xshash, kabi) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, haqiqiy muloqot vaziyatisiz amalga oshiriladigan, so'zlovchi ayni vaqtda ham adresant, ham adresat rolini bajaradigan nutq turini bildiradi. Bolalar nutqida bu hodisa ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi: bola o'yinchoqlari bilan gaplashganda, o'yin davomida turli rollarni ijro etganda yoki xayoliy suhbatdoshi bilan muloqot qurishda kvazi muloqotdan foydalanadi.

Ichki nutq - nutqni vokalizatsiyasiz, ya'ni ovoz chiqarmasdan, tafakkur jarayonida amalga oshirishdir. L.S.Vygotskiy ichki nutqni "tafakkur uchun nutq" deb ta'riflagan va uni egotsentrik nutqdan shakllanuvchi murakkab psixologik hodisa sifatida talqin

etgan. J.Piaje<sup>6</sup> "egosentrik nutq" atamasini fanga kiritib, bolalar ko'pincha o'z o'yinlari va harakatlari jarayonida o'zlari uchun gapirganini kuzatadi. Piajega ko'ra, bu nutq turi kommunikativ maqsad ko'zlamaydigan, sotsial yo'naltirilmagan nutqdir deb hisoblasa, Vygotskiy<sup>7</sup> bu talqinga qarshi chiqib, egosentrik nutqni ijtimoiy nutqdan ichki nutqqa o'tish bosqichi sifatida baholadi. Vygotskiy nuqtai nazaridan egosentrik nutq bolada ijtimoiy nutqning rivojlanishini taqozo etadi va u keyinchalik ichki nutqqa aylanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi bola nutqida kvazi muloqot va ichki nutqning namoyon bo'lish shakllari, nutqiy innovatsiyalar bilan bog'liqligi va kognitiv rivojlanishdagi o'rnini empirik material asosida ko'rsatishdan iborat. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, o'zbek tilida so'zlashuvchi bolalar nutqida kvazi muloqot va ichki nutq masalasi yetarli darajada o'rganilmagan. Qolaversa zamonaviy jamiyatda raqamli kommunikatsiyaning kengayishi bilan jonli muloqot kamaymoqda va bu bolalarda kvazi muloqot shakllarining ortishiga olib kelmoqda.

## II. METODOLOGIYA (METHODS)

Tadqiqotda uch asosiy metod qo'llandi: kuzatuv, so'rovnoma va diskursiv tahlil. Bu metodlar birgalikda empirik materiallarni yig'ish, tahlil qilish va umumlashtirishga imkon berdi.

**Kuzatuv metodi:** Ushbu metod asosida 3 yoshli Xuzayfa ismli bolaning kundalik nutqi tabiiy sharoitda, ya'ni uning oilaviy muhitida 3 oy davomida muntazam kuzatildi va yozib olindi. Kuzatuv davomida bolaning nutqida o'ziga xos nutqiy innovatsiya hodisasi

<sup>3</sup> Qurbonova M. O'zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2009. – 154 b.

<sup>4</sup> Сайидирахимова Н.С. Мактабгача ёшдаги ўзбек болалар нутқининг лингвистик хусусиятлари. Филол.фан.номз... дисс. – Фарғона, 2004. – 124 б. Аҳмедова Н. Образли тафаккур ва ўзбек болалар нутқи. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2021. – 54 б.; Yarashova N.J. Bolalar adabiyoti tilining lingvokognitiv, lingvopsixologik tadqiqi: Filol.fan.d-ri... diss.avtoref. – Samarqand, 2023. – 73 b.; Iskandarova G.

Bolalar muloqot xulqining gender va lingvokulturologik xususiyatlari. O'zMU xabarлари. – Toshkent: Universitet, 2015. – № 12. – B. 200–203.

<sup>5</sup> Поцелуев С.П. Диалог и квазидиалог в коммуникативных теориях демократии: Монография. – Ростов н/Д: СКАГС, 2010. – 496 с.

<sup>6</sup> Пиаже Ж. Речь и мышление ребёнка / Пер. с франц. – М.: Педагогика-Пресс, 1994. – 526 с

<sup>7</sup> Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с

aniqlandi: Xuzayfa “nini” (ya’ni chaqaloq ma’nosidagi so’z) so’zidagi “ni” bo’g’inini kichkinalik ifodalovchi mustaqil morfema sifatida ajratib, uni oila a’zolarini bildiruvchi so’zlarga old qo’shimcha sifatida qo’shib yangi so’zlar yaratgan.

Kuzatilgan misollar:

“Ni tog’a” - kichkina tog’a ma’nosida

“Ni bobo” - kichkina bobo ma’nosida

“Ni aka” - kichkina aka ma’nosida

“Ni opa” - kichkina opa ma’nosida

Bu morfemani bola faqat odamlarga nisbatan qo’llaydi, jonsiz predmetlarga nisbatan esa ishlatmaydi. Bu esa bolaning yangi morfemaning semantik chegarasini intuitiv tarzda to’g’ri belgilaganidan dalolat beradi.

Bundan tashqari bola nutqida so’z yaratuvchanligi bor. Masalan “**shto**” yangi so’zi o’rnida qo’llanadi. Har bir yangi olingan narsalar nomini aytishdan oldin “shto” so’zini ishlatadi. Masalan: “*Dadam menga shto moshina oberadi*”, “*Aya shto lalo olek*”

**So’rovnoma metodi:** So’rovnoma metodi asosida 100 nafar ota-ona ishtirokida tadqiqot o’tkazildi.

### Diskursiv tahlil

N.Musayeva<sup>8</sup> tomonidan yig’ilgan empirik materiallar – ya’ni maktabgacha yoshdagi o’zbek bolalarining kvazidialogik nutqi namunalari, Z.Isakova va B.Vaxobova<sup>9</sup> tadqiqotidagi ma’lumotlar, shuningdek badiiy adabiyotdan olingan parchalar - diskursiv tahlil usulida o’rganildi. Tahlil davomida bola nutqidagi adresant-adresat munosabati, illoktiv aktlar va deysisning ifodalanishi kuzatildi.

### III. NATIJALAR

Ichki nutq - bu tafakkur bilan bevosita bog’liq, ovoz chiqarilmasdan amalga oshiriladigan nutq shaklidir. Vygotskiy ichki nutqning ontogenezini uch bosqichda

ko’rsatdi: tashqi ijtimoiy nutq (external social speech); egotsentrik nutq (egocentric speech) - bolaning o’z-o’zi bilan ovoz chiqarib gaplashishi; ichki nutq (inner speech) - tafakkurning lisoniy shakli. Bu bosqichlar taxminan 2-7 yosh orasida bir-birini almashtiradi.

Piajening egotsentrik nutq tushunchasi Vygotskiynikidan farq qiladi: Piaje bu hodisani bolaning hali ijtimoiylashmagan holatining ko’rsatkichi deb bilsa, Vygotskiy uni tafakkur rivojlanishining zaruriy bosqichi sifatida baholagan. Zamonaviy psixolingvistika Vygotskiy qarashini ko’proq qo’llab-quvvatlaydi: bolaning o’z-o’zi bilan gaplashishi - bu uning tafakkur qilish jarayonini tashqi nutq orqali “ko’rinadigan” qilishidir.

Kvazi muloqot (kvazidialog) - dialogning shartli ko’rinishi bo’lib, unda to’laqonli kommunikativ vaziyat mavjud emas. Kvazi muloqotning asosiy belgisi shundaki, nutqdagi adresant va adresat rollari bitta shaxs tomonidan bajariladi. N.Musayeva (2024) bu hodisani quyidagicha ta’riflaydi: “Kvazidialogik nutqning asosiy belgisi to’laqonli kommunikativ vaziyatning mavjud emasligi bilan tavsiflanadi. Bunday nutqiy vaziyatning o’ziga xosligi shundaki, egotsentrik nutq va tasavvuriy adresatga qaratilgan nutq kesishadi.

- Bolalar nutqida Kvazi muloqot quyidagi shakllarda namoyon bo’ladi: O’yinchoqlar bilan muloqot: bola qo’g’irchoqqa onasiga murojaat qilgandek gaplashadi, ikki rol ni o’zi ijro etadi
- Rolli sahnalashtirish: bola tarbiyachi, shifokor, ota-ona rollarini o’ynab, har bir rol uchun alohida nutq shakllantiradi
- Xayoliy suhbatdosh bilan muloqot: bola o’z tasavvuridagi personaj bilan dialog quradi

<sup>8</sup> Musayeva N.K. Bolalar kvazidialogik nutqining pragmatik xususiyatlari: Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Qarshi, 2024. – 53 b.

<sup>9</sup> Isakova Z.Z., Vaxobova B.M. Ingliz va o’zbek bolalar nutqining psixolingvistik tadqiqi // "Til va tafakkur: lingvistik va metodik tadqiqotlar" resp. ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Denov: DTPI, 2025. – B. 227–236

- O‘z-o‘zi bilan pichirlab gaplashish: ichki nutqqa yaqin, bola stressli yoki shaxsiy vaziyatda tovushsiz yoki pichirlagan holda kvazi muloqot qiladi

N.Musayeva<sup>10</sup> tahlili shuni ko‘rsatadiki, kvazi muloqotning yuzaga chiqishida bir qancha psixologik va ijtimoiy omillar rol o‘ynaydi: tengdoshlar bilan muloqotning yetishmasligi, tortinchoqlik, boy tasavvur dunyosi, oiladagi yolg‘iz farzand ulg‘ayishi va boshqalar. Bu omillar bolaning kvazi muloqotga moyilligini belgilaydi. O‘zbek bolalar nutqida kvazi muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari ham alohida o‘rin tutadi. O‘zbek oilalarida bolalar ko‘p sonli oila a‘zolari bilan muloqotda bo‘lganligi uchun, ularning kvazi muloqotida oilaviy rollar - ona, bobo, buvi, tarbiyachi - ko‘proq namoyon bo‘ladi. Buni Musayeva keltirgan quyidagi misol tasdiqlaydi: 5,5 yoshli Soliha “qo‘g‘irchoqlari bilan “Tarbiyachi va bolalar” ko‘rinishini sahnalashtirib, bir o‘zi tarbiyachi, Ali va Feruza rollarini ijro etgan: “Bolalar, ovqatlanayotganda qanday o‘tiramiz? Feruza, qo‘llar qayerda bo‘lishi kerak? Ali, chapillatmay ye, deb nechchi marta aytdim!”

Ingliz tilidagi bolalar nutqida ham kvazi muloqot keng tarqalgan. Eliseyeva (2015) tadqiqotida bolaning kvazi muloqotida adresatning “kvazisuhbatdosh” timsolini kattalarning nutqidan, ertak qahramonlaridan va telereklamalardan olingan parchalar asosida shakllantirishini ko‘rsatgan. Isakova va Vaxobova (2025) tadqiqotida esa o‘zbek va ingliz bolalar nutqining psixolingvistik taqqosi shuni ko‘rsatdiki: ingliz bolalar nutqida individual ifoda va kreativlik ko‘proq namoyon bo‘lsa, o‘zbek bolalari oilaviy va jamoaviy rollarga ko‘proq murojaat qiladi.

### **Nutqiy innovatsiyalarning bolalar nutqining paydo bo‘lishidagi o‘rni:**

Nutqiy innovatsiya (detskaya innovatsiya / speech innovation) - bola nutqida mavjud til qoidalari asosida yangi, ammo adabiy me‘yorda bo‘lmagan shakllarning ijodiy paydo bo‘lishi hodisasidir. S.N.Seytlin ushbu hodisani ikki turga ajratadi: shakllanish innovatsiyalari (bolaning mavjud grammatik paradigmani yangi so‘zlarga qo‘llashi) va so‘z yasash innovatsiyalari (bolaning yangi so‘z yaratishi). Nutqiy innovatsiyalar bolaning til qoidalarini intuitiv tarzda o‘zlashtirganligini, lekin ularni hali to‘liq bilmasligini ko‘rsatuvchi hodisadir.

Nutqiy innovatsiyaning asosiy mexanizmi - giperregulyatsiya (overextension / overgeneralization): bola biror qoidani o‘rgangach, uni barcha holatga qo‘llashga harakat qiladi. Masalan, ingliz tilidagi “go - went” o‘rniga “go - goed” deyish; o‘zbek tilida “yuguruvchi” o‘rniga “yugurgich” deyish. O‘zbek tilining agglutinativ tabiatga egaligi - ya‘ni so‘z yasashda qo‘shimchalarning muhim rol o‘ynashi - o‘zbek bolalar nutqidagi morfologik innovatsiyalarni ingliz tiliga nisbatan yanada yorqinroq namoyon etadi.

Tadqiqotimizda kuzatilgan 3 yoshli Xuzayfaning “ni-” morfemasi hodisasi nutqiy innovatsiyaning noyob namunasi. Ushbu hodisani tahlil qilganda quyidagi xulosalar kelib chiqadi: Xuzayfa “nini” so‘zining “ni-” qismini kichkinalik bildiruvchi morfema sifatida mustaqil ravishda ajratib olgan. Bu jarayon psixolingvistikada “morfologik tahlil” (morphological parsing) deb ataladi - bola so‘zning ichki tuzilishini tahlil qilib, uning qismlarini anglab oladi, bola ushbu morfemani produktiv ravishda yangi so‘z yasash uchun qo‘llagan: “ni toga”, “ni bobo”, “ni aka”, “ni opa”. Bu so‘z yasash faolligining namunasi, bola “ni-” morfemini faqat odamlarga nisbatan qo‘llab, jonsiz narsalarga nisbatan qo‘llamaganligi uning

<sup>10</sup> Musayeva N.K. Bolalar kvazidialogik nutqining pragmatik xususiyatlari: Filologiya fanlari bo‘ yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Qarshi, 2024. – 53 b.

semantik kategoriyalarni to'g'ri anglab olganidan dalolat beradi. Bu dastlabki kognitiv kategoriyalashtirishning muhim belgisidir. Shuningdek, ushbu hodisa bevosita kvazi muloqot bilan bog'liq: Xuzayfa ushbu innovatsion morfemani ko'pincha oila a'zolari bilan muloqotda, shuningdek o'yinchoqlari bilan Kvazi muloqot jarayonida qo'llagan. Bu esa kvazi muloqotning bolada nutqiy innovatsiyani sinab ko'rish uchun qulay maydon ekanligini tasdiqlaydi.

Nutqiy innovatsiyalar va kognitiv rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik ham muhim. Bola yangi morfema yaratish orqali nafaqat til qoidasini o'rganadi, balki atrofdagi dunyoni kategoriyalashtiradi, munosabatlarni belgilaydi va o'z fikrlarini ifodalash uchun til vositalarini ijodiy ishlatadi. Seytlinning takidlashicha, nutqiy innovatsiyalar bolaning til yaratuvchanligining eng yorqin ko'rsatkichidir.

### **Kvazi nutq bo'yicha tilshunoslikdagi tadqiqot ishlari**

Psixolingvistik yo'nalish. T.I.Petrova<sup>11</sup> (2000) sahnalashtirilgan kvazidialogni bolalar nutqining alohida janri sifatida 6-8 yoshli bolalar nutqi materiallari asosida tahlil qilgan va uning kompozitsion tuzilishi, nutqiy vaziyat xususiyatlarini batafsil ko'rsatgan. Bu tadqiqot kvazidialogning psixolingvistik tavsifida dastlabki monografik asar sanaladi.

Siyosiy nutq va kattalar nutqidagi kvazidialog. S.P.Potseluyev (2010) kvazidialogni faqat bolalar nutqiga xos hodisa emas, balki kattalar - xususan siyosatchilar - nutqida ham kuzatish mumkinligini ko'rsatgan. Demokratik

kommunikatsiya nazariyasidagi "dialog" va "kvazidialog" o'rtasidagi farqni tahlil qilgan. Egotsentrik nutq va ichki nutq nazariyasi. J.Piaje (1923) va L.S.Vygotskiy (1934) qarashlari bolalar nutqidagi Kvazi muloqotni tushunishning asosiy nazariy zaminini tashkil etadi. Zamonaviy tadqiqotlar Vygotskiy pozitsiyasini kuchliroq qo'llab-quvvatlaydi: egotsentrik nutq - o'ta sog'lom kognitiv rivojlanishning belgisi.

M.V.Yeliseyeva<sup>12</sup> bolaning individual til tizimining shakllanishini keng ko'lamda o'rganib, 2-5 yoshdagi bolalar nutqida "o'ziga atalgan nutq" va "boshqalarga atalgan nutq" o'rtasidagi chegarani tahlil qilgan. U kvazi muloqotdagi "kvazi suhbatdosh" tushunchasini lingvistik tushuncha sifatida ishlab chiqqan.

O'zbek tilshunosligida N.Musayeva (2024) dissertatsiyasi bu sohada burilish nuqtasi bo'ldi. U o'zbek bolalar kvazidialogik nutqining pragmatik xususiyatlarini uch yo'nalishda o'rgandi: (1) nutqiy akt ifodasi - lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlarning kvazidialogdagi o'ziga xos namoyon bo'lishi; (2) deysisning ikkilamchi ifodalanishi - "so'zlovchi - hozir - shu yerda" tushunchalarining "soyasi" yaratilishi; (3) lisoniy yaratuvchanlik va pragmatik to'siq. Musayeva tadqiqotida ayniqsa 5-7 yoshli bolalar materiallari boy empirik baza hosil qilgan.

Psixolingvistik taqqosiy tadqiqotlar yo'nalishida Z.Akbarova va D.Yuldasheva<sup>13</sup> (2021) maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining psixolingvistik xususiyatlarini xalqaro jurnal darajasida tahlil qilgan. Isakova va Vaxobova (2025) tadqiqotida o'zbek va ingliz bolalar nutqini psixolingvistik jihatdan taqqoslab, ikkala

<sup>11</sup> Петрова Т.И. Инсценированный квазидialog как особый жанр детской речи (на материале речи детей 6-8 лет). Дисс.кандидата филол. наук. – Владивосток, 2000. – 174 с.

<sup>5</sup> Поцелуев С.П. Dialog и квазидialog в коммуникативных теориях демократии: Монография. – Ростов н/Д: СКАГС, 2010. – 496 с.

<sup>12</sup> Елисеева М.В. От 2 до 5: речь «для других» и речь «для себя» (к вопросу об эгоцентрической речи ребенка) //

Ребенок как партнер в диалоге: труды постоянно действующего семинара по онтолингвистике. – СПб., 2001. Вып. 2.

<sup>13</sup> Yuldasheva D. Bolalarga xos yozma matnlarning transakt tahlili // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2021. — № 3. — B. 89–97.

tilda nutqiy rivojlanishning bosqichlari va o'ziga xos milliy tomonlari ko'rsatilgan.

#### IV. MUHOKAMA (DISCUSSION)

Tadqiqot natijalari bir necha muhim jihatdan oldingi nazariy va empirik ishlarga yangi ma'lumot qo'shadi.

Xuzayfaning "ni-" morfemasi hodisasi S.N.Seytlinning nutqiy innovatsiyalar nazariyasini o'zbek tili materiallari asosida tasdiqlaydi. Seytlin rus tilidagi bolalar nutqida shunga o'xshash giperregulyatsiya hodisalarini batafsil tavsiflab bergan edi. O'zbek tilining agglyutinativ tabiatga ega ekanligi - qo'shimchalar vositasida so'z yasash imkoniyatlarining kengligi - o'zbek bolalar nutqida morfologik innovatsiyalarning yanada ko'proq va xilmaxil namoyon bo'lishiga zamin yaratadi. Bu esa o'zbek ontolingvistikasi uchun katta ilmiy qiziqish uyg'otuvchi sohadir.

Kuzatilgan hodisa Vygotskiyning egotsentrik nutq va ichki nutq nazariyasini qo'llab-quvvatlaydi. Xuzayfa ushbu morfemani kvazi muloqot - ya'ni o'yinchoqlari bilan suhbat - jarayonida ko'proq qo'llagan. Bu esa ichki nutqning tashqi kvazi muloqot orqali namoyon bo'lishi sifatida talqin qilish mumkin: bola yangi morfologik kashfiyotini kvazi muloqot jarayonida "sinab ko'radi" va ijtimoiy nutqda qayta ishlatadi.

So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik bolalar 10-14 oylikda birinchi so'zni aytishni boshlaydi va birinchi so'zlar orasida "ona", "ota", "bobo", "buvi" kabi munosabat bildiruvchi so'zlar ustunlik qiladi. Bu Lepskaya (1997) ning bolalar nutqiy kommunikatsiyasi ontogenezi bo'yicha kuzatishlari bilan mos keladi: bola eng avval o'ziga eng yaqin bo'lgan munosabatlarni til vositasida nomlashga kirishadi. So'rovnomadan xulosa qilish mumkin 90% bolalarda muloqotga intiluvchanlik va ularda ijobiy fikrlash yuqori ekanligi ma'lum bo'ladi. Kvazi muloqot va nutqiy innovatsiyalar o'rtasidagi bog'liqlik tadqiqotimizning muhim topilmalaridan biri bo'ldi. Bola kvazi

muloqot jarayonida - real suhbatdosh yo'qligi tufayli nutqini to'g'rilovchi kimsasiz qolganda - til vositalarini erkin ishlatadi, yangi shakllarni sinab ko'radi va yangi morfemalar yaratadi. Bu esa kvazi muloqotni nafaqat psixologik, balki lingvistik rivojlanishning ham muhim vositasi deb qarashga asos beradi.

Tadqiqotning cheklovlari haqida ham to'xtalish zarur. Kuzatuv ob'ekti bitta bola bo'lganligi uchun umumlashtirishlar chegaralangan. Kelajakda turli yosh va ijtimoiy guruhlardan ko'proq bolalarni qamrab oluvchi keng ko'lamlil tadqiqot olib borish zarur. Bundan tashqari, video yozuvlar va bolaning nutqini bevosita akustik tahlil qilish vositasida olingan ma'lumotlar yanada ishonchli natijalar berishi mumkin. So'rovnoma natijalari esa ota-onalarning sub'ektiv bahosiga asoslanganligi sababli, ayrim ko'rsatkichlar aniq bo'lmasligi mumkin.

#### V. XULOSA (CONCLUSION)

Ushbu tadqiqot bolalar nutqida kvazi muloqot va ichki nutqning o'rni, nutqiy innovatsiyalarning bola nutqini shakllantirishdagi ahamiyati va o'zbek bolalar nutqidagi so'z yasash hodisalarini empirik material asosida tahlil qildi. Asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

- Kvazi muloqot bolalar nutqiy rivojlanishining tabiiy va zaruriy bosqichi bo'lib, u bolaning kognitiv va lingvistik rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi. O'zbek bolalar nutqida Kvazi muloqot milliy madaniy xususiyatlar - oilaviy rollar va jamoaviy muloqot an'analari - bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

- Ichki nutq Vygotskiy nazariyasiga muvofiq egotsentrik nutqdan shakllanadi va bola tafakkuri bilan tilning uzviy bog'liqligini ta'minlaydi. Bolalar taxminan 3-7 yosh orasida tashqi egotsentrik nutqdan ichki nutqqa o'tish bosqichlarini bosib o'tadi. Bu jarayon Kvazi muloqot bilan parallel ravishda rivojlanadi.

- Nutqiy innovatsiyalar bolaning tilni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol yaratuvchi ekanligining dalilidir. 3 yoshli Xuzayfaning nutqida kuzatilgan “ni-” morfemasi - ya’ni “ni toga”, “ni bobo”, “ni aka”, “ni opa” shakllari - o‘zbek tili materiallaridagi morfologik yaratuvchanlikning noyob namunasi va bolalar ontolingvistikasiga yangi empirik ma’lumot qo‘shadi.

- Kvazi muloqot va nutqiy innovatsiyalar o‘rtasida bevosita aloqa mavjud: bola kvazi muloqot jarayonida nutqiy innovatsiyalarni ko‘proq qo‘llaydi, chunki bu vaziyat nutqni to‘g‘rilovchi haqiqiy suhbatdoshsiz tilni erkin sinab ko‘rish imkonini beradi.

- Tilshunoslikda kvazi nutq bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar - Petrova (2000), Yeliseyeva (2015), Musayeva (2024) - bu sohaning nazariy asoslarini mustahkamlagan. O‘zbek tilshunosligida esa bu yo‘nalishda yanada chuqur empirik tadqiqotlar olib borish zarur.

Tadqiqot natijalari ontolingvistika, pragmatik va psixolingvistika sohasidagi darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, maktabgacha ta’lim metodikasini takomillashtirishda, shuningdek bolalar nutqini rivojlantirishga yo‘naltirilgan amaliy ishlar uchun foydalanilishi mumkin.

#### **ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

Akbarova Z., Yuldasheva D. Psycholinguistic essences of children’s speech at the age of preschool education // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). Vol. 7. No. 5. 2021. - P. 511-513.

Davlatova A.A. Bolalar nutqi: psixolingvistik omil, kognitiv bilim, lingvokulturologik aspekt // “Yangi O‘zbekistonda o‘zbek adabiy tilining rivojlanish tendensiyalari” resp. ilmiy-amaliy anjumani. - Toshkent, 2024.

Davlatova R.H. O‘zbek tilining deyktik birliklari: Filol.fan.d-ri diss. - Toshkent, 2020. - 208 b.

Hakimov M. O‘zbek pragmatik asoslari. - Toshkent: Akademya, 2013. - 155 b.

Musayeva N.K. Bolalar kvazidialogik nutqining pragmatik xususiyatlari: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Qarshi, 2024. - 53 b.

Qurbonova M. O‘zbek bolalari nutqining pragmatik aspekti. - Toshkent: Adabiyot uchqunlari nashriyoti, 2018. - 160 b.

Qurbonova M. O‘zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsikolingvistik tadqiqi: Filol.fan.nomz. diss. - Toshkent, 2009. -154 b.

Аҳмедова Н. Образли тафаккур ва ўзбек болалар нутқи. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2021. – 54 б.;

Гальперин П.Я. Введение в психологию. - М.: МГУ, 1976. - 150 с.

Елисеева М.В. От 2 до 5: речь «для других» и речь «для себя» (к вопросу об эгоцентрической речи ребенка) // Ребенок как партнер в диалоге: труды постоянно действующего семинара по онтолингвистике. – СПб., 2001. Вып. 2.

Лурия А.Р. Язык и сознание / Под ред. Е.Д. Хомской. - М.: Изд-во МГУ, 1979. - 320 с.

Петрова Т.И. Инсценированный квазидialog как особый жанр детской речи (на материале речи детей 6-8 лет). Дисс.кандидата филол. наук. – Владивосток, 2000. – 174 с.

Поцелуев С.П. Dialog и квазидialog в коммуникативных теориях демократии: Монография. – Ростов н/Д: СКАГС, 2010. – 496 с.

- Сайидирахимова Н.С. Мактабгача ёшдаги ўзбек болалар нутқининг лингвистик хусусиятлари. Филол.фан.номз. ... дисс. – Фарғона, 2004. – 124 б.;
- Цейтлин С.Н. Детская речь: инновации формообразования и словообразования (на материале современного русского языка): автореф. дис... докт. филол. наук. – СПб., 1989. – 72 с.; Цейтлин С.Н. Язык и ребенок: Лингвистика детской речи: Учеб. пособ. для студ. вузов. – М.: Гуманит. изд. центр «Владос», 2000. – 240 с.;
- Эльконин Д.Б. Развитие речи в дошкольном возрасте. (Краткий очерк) / – М.: Издательство академии педагогических наук РСФСР, 1958. – 116 с.